

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich
Alfraganus universiteti o'qituvchi
Sherali Rozummatov O'ktamboy o'g'li
Alfraganus universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm vohasi qadimgi davrlarda o'zbek davlatchiligi rivojlanishiga juda katta xissa qo'shgan Xiva xonligining davlat boshqaruvini o'rganishda adabiyotlar va ularning tahlillari haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *Xiva xonligi, "Saforatnomayi Xorazm", o'zbek davlatchiligi, qonun chiqaruvchi, "Kengash". Some remarks on public administration*

Abstract: *This article discusses the literature and their analysis in the study of public administration of the Khiva Khanate, which in ancient times made a significant contribution to the development of Uzbek statehood in the Khorezm oasis.*

Keywords: *Khiva khanate, "Saforatnomayi Khorezm", Uzbek statehood, legislator, "Kengash".*

Xorazm vohasi qadimgi davrlardan o'zbek davlatchiligi shakllanishida va rivojlanishida alohida o'ringa ega hududlardan biri hisoblanadi. Shu sababli Xorazm vohasi, xususan, Xiva xonligi davri tarixni o'rganish bugungi kunda ham O'zbekiston tarixining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Xiva xonligining davlat boshqaruv shakli, xonning huquq va vakolatlari, valiahd tayinlash masalasi, xonlikda mavjud ijroiya tizimida faoliyat yurutuvchi mansadorlar huquq va imtiyozlarini mavjud tarixiy manbalar asosida yetarlicha va xolisona tadqiq etish bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xiva xonligi tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar Abulg'azi Baxodirxonning "Shajariy turk", "Shajarayi tarokima", Shermuhammad Munisning "Firdavs uliqbol". Muhammad Rizo Ogahiyning "Riyoziy ud-davla" ("Baxt saodat bog'lari"), "Zubdat ut-tavorix" ("Tarxlar qaymog'i"), "Jome ul-voqeoti sultoniy" ("Sulton voqealari yig'indisi"), "Gulshani davlat" ("Davlat gulshani"), "Shohidi iqbol" ("Iqbol shohidi"), Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi xorazmshohiy", Sayyid Hamidjon to'ra Komyobning "Tavorixi ul-xavoqinin" ("Xonlar tarixi") kabi asarlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xonlikka tashrif buyurgan bir qator elchilar, xususan, eronlik Muhammad Alixon G'afurning 1842-yilda Xiva xoni Ollaqulixon saroyida uch oy davom etgan elchilik safari hisoboti tariqasida yozilgan "Ro'znomayi safari Xorazm" (Xorazm safari kundaliklari) asari hamda 1851-yilda Eron podshohi Nosiriddinshoh tomonidan Xiva xoni Muhammad Amin huzuriga ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni barqarorlashtirish va Xivada saqlanayotgan eronlik qullarning ozod etilishi taklifi bilan jo'natilgan Rizoqulixon Hidoyatning "Saforatnomayi Xorazm"

(Xorazmga elchilik kitobi) asarlarining ham manba sifatida o'zni katta. XVI asrda tashkil topgan Xiva xonligini shayboniylar sulolasiga mansub shaxslar boshqargan, hamda oliy hokimiyatda ham Shayboniylar davlatida amal qilingan "Yaso" (mo'g'ulcha "jasoq" - qonun, qaror, jazolash so'zining turkiycha "yasoq" shakli) an'analari va shariat normalarga amal qilingan.

Davlat boshqaruvida ko'chmanchi dasht an'analari bilan birgalikda o'troq mahalliy davlatchilik usullari ham foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan: urug'ning eng yoshi kattasi ushbu qabila boshlig'i hisoblangan. Agar hukmdor vafot etsa uning o'rniga o'g'li emas, katta ukasi tayinlangan. Hukmdorning ukalari bo'lmagan taqdirda esa katta o'g'li qonuniy hukmdor bo'lgan. Xonlikda qonun chiqaruvchi hamda ijro hokimiyat ham xonning o'z qo'lida bo'lib, da'vo ishlari va har qanday arzlari to'g'ridan to'g'ri xonga qaror chiqarishi uchun keltirilgan, shunday bo'lsada, Xiva xonligida oliy organ hisoblangan "Kengash" faoliyat ko'rsatgan. Kengash tarkibi o'zgarib turgan va turlicha "mashvarat", "majlis" deb ham atalib faqat Muhammad Rahimxon I davridagina doimiy faoliyat ko'rsatuvchi oliy davlat organiga aylantirilgan. Davlatni boshqarish monarxiya shaklida bo'lib, xonlikdagi mansab va huquqlar avloddanavlodga o'tib borgan. Xonning atrofidagi mansabdor shaxslarning ham huquqlari ular vafotidan keyin meros sifatida avlodlariga qoldirilgan. Xiva xonligida lavozimga tayinlash yoki viloyat, shahar boshqaruv ishini topshirishda o'sha shaxsning layoqatiga ham e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan. Elbarsxon va uning ukasi Bilbars Vazir hamda Urganchni egallagach, amakivachchasi Amnaxonning farzandlariga Urganch boshqaruvini topshirganligi ham bejiz emas. Chunki ular ishonli hamda boshqaruvchilik qobilyatiga ega bo'lgan munosib shaxslardan bo'lgan. Bundan tashqari, xonning qarindoshlari yoshi katta yoki kichikligi hamda xonga qarindoshligi uzoq yoki yaqinligiga ko'ra ham shahar va viloyatlar boshqaruvi berilgan XVII asrning o'rtalariga kelib, Xiva xonligida sulolaviy siyosiy boshqaruvida o'zgarish sodir bo'lib, amalda hokimiyat mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotida katta mavqeyga ega bo'lgan yirik yer va mulklar egasi bo'lgan shaxslar qo'lidan, qabila va urug' boshliqlari qo'lida o'ta boshlaganligini ko'rishimiz mumkin. Buning natijasida xonlikda markazlashgan boshqaruv tizimi vujudga kelgan. Yangi tizimining vujudga kelishi yer egaligining shakillanishi bilan ham bog'liq bo'lib, xonlik hududida hokimiyat katta yer egalari qo'lida o'ta boshlagan.

Shu bilan birga avvaldan mavjud bo'lgan kam sonli qabila va oqsaqollari: xon maslahatchilari hisoblangan beshta inoq, ikkita qabila aslzodalari va otaliqlar saroyda xon atrofidan o'rin egallashi kabi ayrim tartiblar saqlanib qolgan. 1643-1663-yillarda hukmronlik qilgan Abulg'azi Bahodirxon mamlakatda bir qator islohotlar o'tkazib, hokimiyatni mustahkamlashga katta e'tibor qaratgan. Mamlakatda mavjud vaziyatni inobatga olgan holda etnik ziddiyatlarni bartaraf etish va barqaror ichki muhitni yaratish maqsadida, etnik guruhlariga alohida hudud hamda boshliqlar tayinlagan. Ularni Buxoro bilan chegara hudud bo'lgan Darg'onotadan tortib, to Orol dengiz

hududlarigacha bo'lgan yerlarga joylashtiragan. Abulg'ozii Bahodirxon mamlakatda markazlashgan boshqaruv tizimini o'rnatishga harakat qilgan va shu yo'lda yuqori mavqe va imtiyozlarga ega bo'lgan turkman yo'l boshchilarini boshqaruv huquqidan mahrum qilgan hamda ularning yer va mulklarini davlat tasarrufiga o'tqazgan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, 1623-1643-yillarda Xiva xoni bo'lgan Isfandiyorxon davlatni boshqarishda tukman qabila boshliqlari yordamiga tayangan hamda ularga katta imtiyoz va vakolatlar bergan. Natijada mamlakatda xonning bu siyosatidan norozlik kuchaygan. Isfandiyorxonning mana shu siyosati uning keyinchalik o'ldirilishiga sabab bo'lganini ham ko'rishimiz mumkin. Abulg'ozii Bahodirxon hukmronligi davrida xonlikda yuqori lavozimlarga o'zbek urug'laridan bo'lgan shaxslar tayinlangan hamda mamlakat hayotida ularning mavqeyi ortib borgan.

Abulg'ozii Bahodirxonning Xiva xonligida o'tkazgan ma'muriy islohotiga ko'ra, 360 nafar o'zbek urug'lariga mansub bo'lgan shaxslar saroyda turli lavozimlarga tayinlangan. Xon ushbu tayinlanganlarning 32 nafarini esa saroydagi eng yuqori mansab va lavozimlarga tayinlaganini Shermuhammad Munis o'z asarida: "ular ikki shayx ul-islom, ikki qozi, bir rais Said ota avlodidan, bitta mutavalli, bitta naqib, to'rtta otaliq, to'rtta inoq, to'rtta mirob, to'rtta parvonachi, ikkita oqo, ikkita arbob, to'rtta chig'atoyi inoqi, bitta vazir, bitta mehtar va qushbegi. Mehtar hamda qushbegi kun-u tun xon xizmatida bo'lgan" deb keltirib o'tgan.

Xulosa o'rnida shuni aytib mumkinki, rasman xonlik sifatida XVI asrda tashkil topgan Xiva xonligi boshqaruv tizimi ko'chmanchi o'zbeklar shayboniylar boshqaruv tizimidan unchalik farq qilmagan. Xiva xonligi dastlabki davrda tarqoq holda, ya'ni uluslarga, kichik birliklarga bo'lib boshqarilgan. Ushbu hududiy birliklarni boshqarish xonga qarindoshlik darajasiga va da'vogar shaxsning yoshiga qarab taqsimlangan. Keyinchalik yirik yer va mukllarga ega bo'lgan sulolalarning mavqeyi ortib borishi bilan, hokimyat ham ular qo'lida to'plangan. Bu esa mamlakatning markazlashuviga sabab bo'lgan omillardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хоразм сафари кундаликлари. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2009. – 233 б.
2. Мадримов Х. Хива хонлигининг давлат тузуми ва ҳуқуқ манбалари. Юридин фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация – Тошкент. 2012. – 54 б.
3. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVIII-XIX асрлар). – Тошкент: Akademi nashr, 2019. – 143 б.
4. Шерипов У. Хива хонлиги тарихи (1511-1920 йй). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси – Урганч: 2009. – 44 б. 6. O'zbekiston tarixi.